



UDK: 378.096

Zamira TESHABAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
E-mail: z.teshabayeva@cspu.uz

Fan va texnologiyalar universiteti dotsenti, PhD G.Gaynazarova taqrizi asosida

PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'QUV JARAYONIDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA TALABALAR KASBIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Mazkur maqolada pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalar kasbiy faolligini rivojlantirishda differensial yondashuv asosida o'quv jarayonini tashkil etish va uning o'ziga hos xususiyatlari o'rganiladi. Oliy ta'lim o'quv jarayonida differensial ta'limning asosiy jihatlari hamda imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu mashg'ulotlarning mazmuni va metodik yondashuvlar talabalarda kasbiy faollikni rivojlantirishga samarali xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, kasbiy faollik, differensial yondashuv, o'quv jarayoni, akademik ko'rsatkich, texnologiya, mehnat bozori.

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация

В данной статье рассматриваются особенности организации учебного процесса на основе дифференцированного подхода в развитии профессиональной активности студентов в педагогических высших учебных заведениях. Анализируются основные аспекты и возможности дифференцированного обучения в образовательном процессе высшей школы. Также подчеркивается, что содержание и методические подходы этих занятий эффективно служат развитию профессиональной активности у студентов.

Ключевые слова: Высшее образование, профессиональная активность, дифференцированный подход, учебный процесс, академическая успеваемость, технология, рынок труда.

DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL ACTIVITY BASED ON A DIFFERENTIAL APPROACH IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

This article examines the organization of the educational process based on a differential approach in developing students' professional activity in pedagogical higher education institutions and its specific characteristics. The main aspects and possibilities of differentiated education in the higher education learning process are analyzed. It is also emphasized that the content and methodological approaches of these sessions effectively serve to develop professional activity in students.

Key words: Higher education, professional activity, differential approach, educational process, academic performance, technology, labor market.

Kirish. Yangi O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish, zamonaviy ehtiyojlarga muvofiq yuqori malakali pedagoglarni tayyorlash, erishilgan ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish va boshqa vazifalar ta'lim tizimi sohasidagi ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. UNESCOning "XXI asr uchun Oliy ta'lim" deklaratsiyasi Yevropa oliy ta'limida sifat standartlarini birlashtirish, kredit-modulli tizimni va raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Deklaratsiya oliy ta'limni butun ta'lim tizimining rivojlanishidagi katalizator sifatida ko'rib chiqadi va uning jamiyatning barqaror rivojlanishiga qo'shadigan hissasini ta'kidlaydi. Xalqaro tadqiqot markazlarida esa o'quv modellarini uyg'unlashtirish, innovatsion va individual yondashuvlarni, masofaviy ta'limni rivojlantirish hamda talabalarni guruhlariga ajratish tamoyillarini takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borilmogda. Ayniqsa, talabalarining nazariy bilimlarini amaliyotga, masalan, kasbiy faollik jarayoniga qanday samarali o'tkazish va o'qitish metodikalarini takomillashtirish masalalari alohida o'rganilmogda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da "Ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish" vazifasi belgilab berilgan. Har qanday jamiyatning asosiy boyligi, uning

gullab-yashnashi uchun zarur shart inson resursidir. Tadqiqotchilar ushbu turdagi inson resurslari "Jamiyat rivojining kaliti bo'lgan ijodkorlik, umumiy madaniyat, o'zini o'zi rivojlantirish istagi, motivatsiya, tadbirkorlik kabi shaxsiy fazilatlar to'plami bilan bog'liq" deya ta'kidlaydilar. Bo'lajak mutaxassisning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish, o'z mutaxassisligi sohasida mehnat faoliyatini amalga oshirish ularning ta'lim jarayonidagi o'zlashtirgan tegishli kasbiy kompetentligi bilan bog'liq. Bugungi kunda mehnat bozoridagi zamonaviy ish beruvchi nafaqat yaxshi ijrochi, balki yaratuvchi, muammolarni tezkor tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatiga ega, standart va nostandart vaziyatlarda ular uchun javobgar, vaziyatni o'zgartirishga va yangi chegaralarni hamda yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga tayyor mutaxassislarga talab qo'ymoqda.

Biroq, ko'pincha kasbiy funksiyalarni bajarishga tayyor bo'lmagan bitiruvchi mehnat bozoriga kiradi, bu o'qitish jarayonida olingan bilimlarning mazmuni va sifati va jamiyatning ehtiyojlari o'rtasida bir qator nomuvofiqliklar mavjudligi bilan izohlanadi. Shunga ko'ra, hozirgi vaqtda oliy ta'limning ustuvor yo'nalishlari bo'lajak mutaxassislarning nafaqat kasbiy, balki intellektual rivojlanishi muammolarini hal qilishni o'z ichiga oladi. Har bir pedagog guruh talabalarining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasi turlicha ekanligini yahshi biladi. Tajribali pedagoglar o'z amaliyotida talabalarni o'qitishda kerakli natijalarga erishish uchun diferensial ya'ni tabaqalashtirilgan yoki individual-shaxsiy yondashuv usulini qo'llaydilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tabaqalashtirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu, guruhlariga xos bo'lgan talabalar individual xususiyatlarini o'rgatadi va ushbu guruhlarda o'zgaruvchan o'quv jarayonini tashkil qiladi. Ta'lim mazmunidagi o'zgarishlar talabalar individual tipologik xususiyatlari bilan bog'liq shuning uchun ham tabaqalashtirilgan ta'lim haqida gapirish dolzarbdir.

Differensial ta'lim jarayonining asosiy jihatlari:

1. Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish.

2. Ushbu xususiyatlar asosida talabalarni guruhlash.

3. Guruhlarda o'quv jarayonining o'zgaruvchanligi

Pedagog yordamini past natijalarga erishgan talabalar uchun test yoki materialni mustaqil qismlarga bo'lish, vizual mustahkamlash bilan ishlash, qo'llab – quvvatlash, tayyorgarlik mashqlari bilan ishlash bilan ta'lim jarayonining samarali bo'lishiga erishishi mumkin.

O'qitishda individual va shaxsiy yondashuv yuqori akademik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan talabalarga mavzuga qiziqishni yo'qotmaslik, o'sib borish va tobora yuqori darajadagi bilimni egallash, o'rta va past akademik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan talabalarga esa tengdoshlar misolida istiqbollarni ko'rish va ularga erishish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Differensial ta'lim jarayonining asosiy jihatlaridan biri, o'zlashtirishda akademik muvaffaqiyatsizlikni oldini olish uchun o'quv jarayonida talabani harakatlariga e'tibor qaratish va individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. Bundan tashqari, talabalarni o'z vaqtida aniqlash va ular bilan har bir mutaxassislik fanlarni o'zlashtirishi ustida ishlash kerak, chunki boshqa fanlarning o'zlashtirilishi uning ixtisoslik fanlardagi erishgan muvaffaqiyatlari darajasiga bog'liq. Tadqiqotimizda guruhlarda past o'zlashtiruvchi talabalarni aniqlashda quyidagi usullar qo'llanildi:

-talabalarining o'qishdagi qiyinchiliklarga, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarga bo'lgan munosabatini kuzatish;

- talabalarining atrof-dagilar bilan o'zaro munosabatini kuzatish;

- talabalarining mustaqil ishlarini o'rganish.

• O'zlashtirishda muvaffaqiyatsizlikning oldini olishga intilayotgan pedagog dars jarayonida talabalar oldida doimiy muammoli savollar tug'diradi, ular tomonidan o'quv ishlarini qanday bajarishini, ularning reaksiyalarini, yuz ifodalari, imo-ishoralarni kuzatadi. Bu oson ish emas, buning uchun pedagog haqiqiy psixolog bo'lishi talab etiladi.

• Mustaqil ta'limni tashkil etishda pedagog faoliyat natijalari va uning borishi to'g'risida qaror qabul qilish uchun material tayyorlaydi. U talabalarining ishini nazorat qiladi, ularning xatolarini tahlil qiladi va talaba bilan birgalikda ushbu xatolarni tuzatishga harakat qiladi.

Talabada o'quv materialining mazmuniga ijobiy munosabat quyidagicha rivojlanadi: -birinchi bosqichda eng yengil ko'ngilochar material uning ahamiyatidan qat'i nazar beriladi;

-ikkinchi bosqichda material ko'ngil ochar, ammo o'rganilayotgan mavzuning mohiyatiga tegishli bo'ladi;

-uchinchi bosqich esa o'rganilayotgan materialning eng muhim mohiyatiga tegishli bo'ladi.

Tahlil va natijalar. O'zlashtirishda ortda qolgan talaba o'qishga ijobiy munosabatni rivojlantirishi uchun avval uning kuchini talab qilmaydigan akademik yutuqlarini rag'batlantirish, so'ngra biroz kuch talab qiladigan akademik yutuqlarni rag'batlantirish va shundan keyingina katta kuch talab qiladigan akademik yutuqlarni rag'batlantirish lozim bo'ladi. YA'ni, o'zlashtirishda ortda qolgan talabada o'rganishga ijobiy munosabatni shakllantirish bo'yicha ushbu ish tizimida siz oddiydan murakkabga o'tishingiz kerak bo'ladi. Ortda qolgan talabani aniqlagandan so'ng, o'qituvchi bir qator profilaktika choralarini ko'rish, darsning har bir bosqichida bunday talabani o'qitishga e'tibor qaratishi kerak. Tadqiqot davomida differensial ta'limning bo'lajak pedagoglar kasbiy faolligini rivojlantirishdagi integrativ roli nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy pedagogik tajribalar asosida ham sinovdan o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari

Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi talabalari ishtirokida tashkil etildi. Unda differensial yondashuvni amalga oshirishning quyidagi metodik mexanizmlari ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich joriy etildi:

Birinchiidan, o'quv topshiriqlarini darajalash asosida har bir talabani bilim darajasi, kognitiv uslubi va kasbiy qiziqishlariga mos keladigan individual o'quv trayektoriyalari loyihalashtirildi. Bunda "asosiy", "kengaytirilgan" va "ijodiy" darajalardagi topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. Asosiy darajadagi topshiriqlar pedagogik hodisalarni tushunish va izohlashga qaratilgan bo'lsa, kengaytirilgan daraja tahlil va sintez ko'nikmalarini, ijodiy daraja esa muammoli vaziyatlarda original pedagogik yechimlarni mustaqil ishlab chiqishni taqozo etdi.

Ikkinchiidan, loyihaviy faoliyat differensial ta'limning integrativ shakli sifatida qo'llanildi. Talabalar kasbiy qiziqishlari va kelajakdagi mehnat faoliyati yo'nalishiga qarab guruhlariga ajratildi. Har bir guruh o'ziga xos pedagogik muammo (masalan, inklyuziv ta'lim, raqamli resurslardan foydalanish, bolalar bilan ishlashda o'yin texnologiyalari) bo'yicha loyiha ishlab chiqdi. Natijada talabalar nafaqat bilim, balki jamoada ishlash, tadqiqot olib borish va natijalarni taqdim etish kabi kasbiy faollikning tarkibiy qismlarini rivojlantirdi.

Uchinchiidan, mentorlik va refleksiv yondashuv differensial ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Har bir talabani o'z faoliyatini tahlil qilishi, kasbiy kamchiliklarini aniqlashi va ularni bartaraf etish yo'llarini rejalashtirishi uchun individual refleksiv varaqalar yuritildi. Pedagog-mentorlar tomonidan muntazam ravishda konsultatsiyalar tashkil etilib, talabalarining shaxsiy va kasbiy o'sishiga yo'naltirilgan qo'llab-quvvatlash tizimi yaratildi.

Tajriba-sinov ishlari yakunida differensial ta'lim asosida o'qitilgan talabalar guruhlarida kasbiy faollik ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgani aniqlandi.

Bundan tashqari, differensial ta'lim sharoitida o'qigan talabalar pedagogik amaliyot davomida ko'proq ijodiy yondashuv, moslashuvchanlik va o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish ko'nikmalarini namoyish etdi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, bunday talabalar o'z kasbiy faoliyatida muammoli vaziyatlarni hal qilishda mustaqil qaror qabul qilish, metodik yangiliklarni sinab ko'rish va o'z tajribasini tahlil qilishga ko'proq tayyor bo'lgan.

Shuningdek, differensial ta'limni tashkil etishda pedagogning roli muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Tajribali o'qituvchilar tomonidan talabalarining individual xususiyatlarini aniqlash, ularga mos metodlarni tanlash va jarayonni moslashuvchan boshqarish bo'yicha yuqori darajadagi pedagogik mahorat talab etilishi aniqlandi. Shu nuqtai nazardan, differensial ta'limning samaradorligi nafaqat metodik vositalar, balki pedagogning refleksiv pozitsiyasi, empatik munosabati va kasbiy tayyorgarligi bilan bevosita bog'liqdir.

Xulosa va takliflar. Ta'limda talabalar bilan differensial yondashuvni tashkil qilishni o'rganish natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Ta'lim jarayonining tashkilotchisi pedagog eng muhim mavzular va g'oyalarni batafsil, chuqur o'rganishni ta'minlashi shuningdek uni amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlashi, talabalarining tashabbusini, ularning o'qish va rivojlanishdagi mustaqilligini rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Ta'limda agar har bir talabani ishtirok etish darajasi hisobga olinmasa, zamonaviy darsni samarali deb hisoblash mumkin emas. Talaba barchaning muvaffaqiyati va rivojlanishi, ko'pchilikning emas, balki har bir talabani muvaffaqiyatli rivojlanishidan iborat ekanligini anglaydi. Shunday qilib, u o'zining rivojlanish yo'li va imkoniyatlarining potensialiga erishishga intiladi. Shu bilan bir qatorda tabaqalashtirilgan ta'lim jarayonida talabani ijodiy tashabbusi, zukkolik, mahorat hamda umumiy- kasbiy madaniyati rivojlanadi.

Ta'limda pedagogik yondashuvlar, psixologik omillar, madaniy-atrof-muhit sharoitlari va texnologik imkoniyatlar bir-birini kuchaytiruvchi va to'ldiruvchi elementlar sifatida ishlaydi.

Masalan, talabaniڭ individual psixologik xususiyatlari (o'ziga ishonch, motivatsiya) uning guruhdagi o'rni va o'qituvchi bilan munosabatlariga ta'sir qilsa, o'z navbatida, bu munosabatlar uning o'quv faoliyati va jamiyatdagi ishtirokiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ta'lim muassasasining madaniyati va qo'llanilayotgan texnologiyalar bu o'zaro ta'sirning sifatini belgilaydi, uni yanada samarali yoki, aksincha, zaiflashtiradi.

Demak, talabalarning kasbiy faolligini rivojlantirish – bu nafaqat alohida kurslar o'tkazish yoki ma'lum shart-sharoitlarni yaratish, balki butun ta'lim-tarbiya muhitini uyg'un va o'zaro bog'langan tizim sifatida qayta qurishni nazarda tutadi. Faqatgina bunday yondashuv orqali yoshlarda barqaror, ichki motivatsiyaga asoslangan va turli sharoitlarda o'zini namoyon qila oladigan haqiqiy ijtimoiy faollikni shakllantirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdaڭi pf-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"
2. Арапов А.И. Дифференциация обучения в истории отечественной педагогики и школы. - Новосибирск: нгпу, 2003, - 243 с.
3. Бударный, А.А. Индивидуальный подход в обучении [текст] / А.А. Бударный // советская педагогика, 2005. – №7. – с.18-20.
4. Ishmuhamedov.R Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent 2008
5. Тешабаяева, З.С. (2023). Технологии формирования профессиональной мотивации у будущих воспитателей-педагогов. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 2023. 714-717.
6. Teshabayeva, Z. S. (2021). Professional training of future preschool teachers in the field of contextual learning technologies. Academic research in educational sciences, 2(2), 1360-1367.